

**ALISHER NAVOIY LIRIKASIDA XIZR OBRAZINING POETIK
KO`RINISHLARI («G`aroyib us-sig`ar» misolida)**

Tirkasheva Muxlisa

Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

2-bosqich magistranti. Tel: +998975780198

E-mail: tirkashevamuxlisa695@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada g`azal mulkining sultonii Alisher Navoiyning Mukammal asarlar to`plamiga kiruvchi “G`aroyib us-sig`ar” devoniadagi g`azallarda Xizr obrazining qo`llanilishi va unung poetic ifodalariga atroflicha to`xtalib o`tilgan . Mazkur devonda Xizr obraziga 28 marotaba murojaat etilgani va har bir o`rinda o`ziga xos original ma`nolar ochilganligi haqida so`z borgan.

Kalit so`zlar: Xizr, Xizri rah, “Xizri xat”, Xizrifarruxpay, suchashmayi hayvon, obihayvon, Xizr obrazi genezesi, “Hayoti jovidoniy”

O`zbek klassik adabiyotidagina emas, balki jahon mumtoz adabiyotida ham chuqur ildizlarga ega bo`lgan diniy-mifologik obraz - Xizr obrazi talqini va etimologiyasi haqida, poetik vazifalari to`g`risida ko`pgina ilmiy tadqiqot ishlari, ilmiy maqolalar yozildi. Jumladan, F. Nurmonov «Xizr obrazi genezisi va uning o`zbek folkloridagi talqini», «Xalq poetik ijodida Xizr obrazining badiiy talqini»bmi, N. Tilakovaning «Folklor va mumtoz asarlarda Xizr obrazining talqini» maqolasi va f.f.d.,U. Qobilovning «Alisher Navoiy she`riyatida Xizr obrazi badiiy talqiniga doir» maqolalari kabi ishlarni va shunga o`xshash bu g`ayb ilmi sohibi bo`lgan Xizr siymosi haqidagi turli diniy hamda folkloristik qarashlar ochib berilgan ilmiy urinishlarni keltirish mumkin.

Xizr obrazini tanlangan - mumtoz adabiyotda yoki deyishimiz mumkinki, xoslar adabiyotida qo`llash mumkin bo`lgan ma`nolar qanchalar yuqori darajada bo`lmashin, xoh u tasavvufiy , xoh u diniy yoki dono xalqimiz qarashlari jihatidan ham Alisher Navoiy ijodida ularning barchasini qamrab oladigan ko`p o`rinlarda mazkur adabiy dahodan o`zgasida uchratish mumkin bo`lmagan qo`llanishlarni topa olamiz(o`rinlarni uchratishimiz mumkin). Xizr obrazi orqali turfa xil jozibador poetic ifodalar yaratganlarki, birgina «Xazoyin ul-ma`oniy» kulliyotidagi «G`aroyib us-sig`ar» devonining o`zida 28 marotaba murojaat etgan va 28 xil betakror poetik jilvalanishlarni baytlarda namoyon bo`lganligini kuzatishimiz mumkin: Alif harfining ofatlarining ibtidosi «G`aroyib»din 5-g`azal 6-baytida; 9-g`azal 6-baytida; 16-g`azal 6-baytida; 24-g`azal 6-bayti; Bye harfining balolarining bidoyati «G`aroyib»din 57-g`azal 5-bayt; Tye harfining torojgarlarining tamoshasi «G`aroyib»din 74-g`azal 1-bayt; Hye harfining parivashlari parvozi «G`aroyib»din 101-g`azal 3-bayt; Rye harfining

ra`nolarining rustoxyezi «G`aroyib»din 165-g`azal 3-bayti; Sin harfining siyminbarlarining savdosi» G`aroyib»din 225-g`azal 3-bayt; Shin harfining sho`xlarining shamoyili «G`aroyib»din 249-g`azal 6-bayt; Zod harfining zamyuronbo`ylarining ziyosi «G`aroyib»din 278-g`azal 1-bayt; Qof harfining kofirlarining kamoli «G`aroyib»din 332-g`azal 6-bayt; 334-g`azal 5-bayt, 359-g`azal 3-bayt; Lom harfining lu`batlarining latoyifi «G`aroyib»din 370-g`azal 6-bayt, 384-g`azal 5-bayt, 387-g`azal 6-bayt; Mim harfining mahbublarining malohati «G`aroyib»din 403-g`azal 5-bayt; Nun harfining nozaninlarining nozi «G`aroyib»din 488-g`azal 8-bayt; Vov harfining vallohiyyat afzonlarining vaqoyillari «G`aroyib»din 512-g`azal 2-bayt; Hye harfining humoyunvashlarining halokangizlig`lari «G`aroyib»din 526-g`azal 3-bayt, 529-g`azal 1-bayt, 542-g`azal 7-bayt; Yo harfining yag`moyillarining yuz ko`rguzmaklari «G`aroyib»din 577-g`azal 4-bayt, 629-g`azal 6-va 8- baytlarda goh sufiyona, goh xalqona va ba`zi o`rinlarda faylasufona jihatdan Xizr obrazining mohiyatini ochib berishda o`ziga xos va originallikni yuzaga keltirgan va misralarda o`z maqsadiga erishgan. Chunonchi, «Xizri rah», «nafs zulmati» - abadiy hayot suyi yashiringan zimiston, «Xizri xat», «Sabzi xurram», «Suchashmayi hayvon», «Jomi Jam», «Masihim obihayvoni», «Dudog` obihayvoni», «Hayoti jovidoniy», «Xizrifarruxpay», «Gunbadi xazro», «Xizri rahim» kabi jimmimador qo`llanishlar ijodkor dahosining o`zigagina xosligini anglatib turadi. Bu kabi purma`no va eng injatamsillarni o`z o`rnida, ya`ni bayt ichida keltirib izohlanmasa ma`nifshon sandig`ini bizga ocholmaydi.

Ijodkor o`z g`azallarida ham ishqij majoziy, ham ishqij ilohiy ya`nikim, haqiqiy ishni tarannum etgan. Lekin shuni ham aytish kerakki, Navoiy tasavvufni anglagan va o`z asarlariga chuqur singdirgan. Bu jihatdan u shoirning g`azallarini ham diniytasavvufiy jihatdan, ham dunyoviy jihatdan tahlilga tortish o`rinli va haqli bo`ladi. Jumladan, quyidagi bayt «G`aroyib us-sig`ar» devonining Alif harfining ofatlarining ibtidosi «G`aroyib»din 5-g`azal 6-baytidir. Bu g`azal butunicha hamd ruhida bo`lib, Olloh vasp etiladi.

**Navoiy nafs zulmotig`a qolmish,
Sen o`lmay Xizri rah chiqmoq ne, yoro?!**

7 baytli g`azalning 6 bayti-maqta qismida lirik qahramon o`zining holatini ham yaratguchi «Illoho, podshoho»»ga «Navoiy nafs yo`lida zulmotga-qorong`ulikka qoldi, sen menga yo`l boshlovchi Xizr bo`lmay nima, ey yor. Bu zulmatdan chiqishimda faqatgina sensan to`g`ri yo`l yoki «Navoiy nafs yo`lida zulmotga-qorong`ulikka qoldi, sen menga yo`lboshlovchi Xizr bo`lmasang bu zulmatdan chiqish qayda menga” (rah-yo`l ma`nosida kelgan) deydi va bu dunyoning moddiyat va nafsning qorong`u yo`lida adashganligini va asl haqiqatni ya`ni Olloh yo`liga qaytishda Xizrning yo`lchi bo`lishi yoki Xizr kabi zulmatdan haqiqatni topishi ifodalanyapti va Hazrati Xizr bilan bog`liq go`zal poetik manzaralarini gavdalantiryapti. Chunonchi , ba`zi manbalarda Xizr

odamlarda Allohga bo‘lgan e’tiqodni qo‘llab turish uchun Iso, Ilyos va Idris singari abadiy hayot ato etilgan. ... har yili haj qiladi, juma kunlari Makka, Madina va Quddus sh.laridagi masjidlarda namoz o‘qiydi...., yordamga keladi, deb sifat berilgan. Qur`oni karimning «Kahf»surasida : .»*Bas, bandalarimizdan bir bandani topdilarki, Biz unga O’z dargohimizdan rahmat ato etgan va O’z huzurimizdan ilm bergen edik»* deyilgan (**1.Qur’oni karim. 204-205-betlar**). Xizrga xos muhim sifatlardan yana biri uning homiyligi, qiyalgan, adashgan kishilarga yo`l ko`rsatishi, yordam berishidir. Bundan tashqari shoir o`zining «Tarixi anbiyo va hukamo» asarida keltirgan «Xizr a.s.ni mursal debdurlar. Zulqarnayn hayvon suyi xiyoli bila zulumotqa kirgonda Xizr a.s. ani boshlab kirdi va derlarkim, Ilyos a.s. dog`I bila edi»Ul suvni Tengri Taolo bu ikkovga nasib qildi va Zulqarnayn mahrum yondin. Va ba`zi debdurlarkim, haq taolo Xizr a.s. ga ilmi ladunni nasib qildi va hayvon suyi iborat ondin» kabi diniy tafsilotlarga ham ishora bo`la oladi.

Bu bayt tahlilida o`rni kelganda aytish joizki, Ozarbayjon olimi M.Saidov Xizrni turkiy tilli xalqlarga taalluqli timsol deydi. Uningcha, Xizr yo`lda qolgan, adashganlarga yordam beradi... Tilshunos olim N.Husanovning qayd etishicha, «Xizr matnlarda «hamkorlik qiluvchi, hamroh, avliyo, yo`l ko`rsatuvchi,»mangu tirik ustoz» kabi ma`nolarni ifodalaydi» degan ilmiy faktlari ham bayt ma`nosining yana-da yaqqol ochilishiga dastak bo`ladi.

Alisher Navoiy yuqori o`rinlarda keltirib o`tganimizdek badiiy adabiyotning poetic qo`llanishlaridagi har bir kashfiyotida ham falsafiy, ham diniy, ham folkloristik jihatlarining ma`noviy mayjudliklarini nazardan chetda qoldirmaydi.

So`zimizning isboti sifatida «G`aroyib us-sig`ar» devonining Yo harfining yag`moyillarining yuz ko`rguzmaklari «G`aroyib»din 629-g`azal 8-baytdagi Xizr siymosining ma`no ifodasiga to`xtalib o`tamiz:

**Yuz Xizr umridin ortug`roqdurur ming jon berib
Bir qadam qo`ymoq, tuyassar gar bo`lur, jonon sari.**

Baytda zohiran «Agar mingta jon berib jonon sari bir qadam qo`ymoqqa tuyassar bo`lsam, yuz Xizr umridin ortug`roqdir» deb go`yo majoziy ishq ya`ni oshiqning mashuqaga ishqil tavsiflanyotgandek ,biroq botinan tasavvufiy- irfoniy jihatdan talqinida esa bayt mazmuni ilohiy ishqqa ko`chadi. Bu tasavvufiy mazmunda Vahdat maqomi deyish mumkin. Mumtoz adabiyot badiyatiga ko`ra Vahdat asl yatargan Ollo bilan ruhiy-ma`naviy, qalban birlashishdir. Shu jihatdan yondashganda baytda Xizr obrazining hatto Qur`onda keltirilgan favqulodda ilm sohibi-solih banda, donishmand yoki doimo yashillik , hamrohlik, yo`lboshlovchilik kabi xususiyatlari emas aynan o`sha abadiy hayot suvi - obi hayvon, hayoti jovidoni, suchashmayi hayvon sohibi ekanlik xususiyatlari urq`u berilib, “yuz abadiy hayotga ega mingta jonni berib jononga yaqinlashmoq”ni afzal ko`ryapti. Lirik qahramon zohidlik darajasiga ko`tarilgan bo`lib, u Ollohoi sevishdan boshqa jamiki narsalarni rad etib, uni

hech bir tama- manfaat ko`zlamay, uni mutlaq sevish- oshiq ma`naviy hayotining mohiyati ekanligini ifodalamoqda. Chunki Xizrga abadiy hayotni ham, barcha tirik jonni ya`nikim, o`sha baytdagi ming jonni ham «Jonon»ning o`zi berishi ma`lum. Aynan Xizr obrazining yana bir o`ziga xos xususiyatini ya`ni , Qur`oni karimning «Kahf» surasidagi Xizr a.s.ga berilgan Ollohnning in`omiga ishora bor : ««bandalarimizdan bir bandani topdilarki, Biz unga O`z dargohimizdan»O`z huzurimizdan ilm bergen edik». Bu jihatdan Xizr motivining «abadiy ilm sohibi, abadiy hayot sohibi»- tuganmas ilm va tuganmas hayot kabi nisbatlari poetik qo`llanishda asosiy mazmunda nazarda tutib qo`llanagan.

Samoviy siymo - Hazrati Xizr obrazining birgina baytda qanchalar keng ma`noda qo`llanilishi Navoiy dahoisining beqiyos ijodiy fikratining qay darajada ekanligini bu kabi original poetik manzara yaratganligidan bilishimiz mumkin. Jumladan, quyida keltirilajak baytda ham, ya`ni Zod harfining zamyuronbo`ylarining ziyosi «G`aroyib»din 278-g`azal 1-bayt:

**Jong'a zulfung tobidin ul la□li xandondur g'araz,
Xizrg'a zulmat tilardin obi hayvondur g'araz.**

Baytda bir qarashda oshiq yigitning mahbubasiga bo`lgan muhabbat tasvirlangan «Qora sochlaring firoqiga chidashimdan maqsad oxiri u jilmaygan lablaringga yetish» va ikkinchi misradagi tamsil esa «Xizrga u zulmat shahriga kirib mashaqqatlariga chidashdan maqsad hayot suviga erishish» dek ifoda ko`zga tashlanadi, ammo kalom ilmi gulzorining bog`boni bo`lgan Alisher Navoiy o`z baytlarini tasavvufning ma`nolar jilosiga ko`milgan istilohlari bilan bezaydi, ya`ni zulf, la`l so`zlarni qo`llab ko`ringandan butlay boshqacha va chuqur ma`nolar joylaydi va o`z ifodasiga Xizr bobo bilan bog`liq diniy-tarixiy tamsilni tizib ulkan ma`nolarga boy go`zal ifodalarni gavdalantiradi. Chunonchi, tasavvufona mazmunni izohlashda zulf istilohiga biroz to`xtalamiz. Zulf yorning sochi,gisu, kokil shakllarida ham uchraydi.Zulf majozan moddiy olamni anglatib, mutlaq jamolni- vahdatni yashiruvchidir. Yana shuni keltirishimiz mumkinki, zulf “...олам Оллоҳ жамолини ўзида намоён қилувчи кўзгу, айни чоғда, хилма-хил нарсаларнинг сон-саноқсиз суратлари ортига яширувчи пардадир. Айтилганлардан келиб чиқилса, сочининг мазкур таърифини шундай тушиуниш мумкин: Зулф Ҳақнинг лутф ва қаҳр сифатлари билан тажсаллий қилишиидирки, улар Ҳақнинг, Ҳақ жамоли бирлигининг яширин қолии сабабчилари дидир”¹. Bundan tashqari yuz yorug`lik, zulf qorong`ulik tisolidir.

Zulf mumtoz poetikada yo`1 ma`nosida ham kela oladi. Bu jihatdan uzun yo`1 va qorong`u tun, yo`lchi ko`ngil-jon majozlarini chiqarish mumkin.

¹ Abdulhamid Qurbanov.Ikki maqola:Zulf-sufiyona istilohda olam ramzi.kh-davron.2018.

La`l-tasavvufona istilohda yorning so`zi va haqiqiy mashuq, yani Olloh vasliga yetishish, tiriltiruvchi rahmoniy nafas – jon va fayz bag`ishlovchi kabi poetic mazmunlarni ifodalaydi. “*Лабнинг иккиламчи маъноларда Масиҳнинг жонбахши нафасига менгзалиши эса ҳар томондан санъаткорлик намунаси саналади. Лаъл тасвирида лабни ифода этар экан, лабнинг ички маъносига ҳам эътибор бериш талаб этилади. Лаб - ботиний маънода мавжудодга вужудий файз етказувчи раҳмоний нафас, ундан мақсад эса илоҳий каломдир. Бунда калом илоҳиёт оламидан нозил бўлган сўзларни англатади*”².

Baytdagi Xizr obraziga qaytadigan bo`lsak, birinchi misradagi *zulfing tobi* va *la`li xandon* ikkinchi misradagi *Xizr, zulmat tilamoq, obi hayvonlar* bir biriga betakror tamsil-majozlilikni namoyon etyapti. Asosan, la`li xandon ko`yida qorong`u va uzun yo`lda yordamga, to`g`ri yo`lga muhtoj chunki yo`lning oxirida abadiy husn, vahdatga yetishmoq kerak:abadiy hayot sohibi, so`ngsiz ilmi sohib Xizr maqsadiga erishganidek. Shu jumladan «*Xizr a.s.ni mursal debdurlar. Zulqarnayn hayvon suyi xiyoli bila zulumotqa kirgonda Xizr a.s. ani boshlab kirdi va derlarkim, Ilyos a.s. dog`I bila edi» Ul suvni Tengri Taolo bu ikkovga nasib qildi va Zulqarnayn mahrum yondin. Va ba`zi debdurlarkim, haq taolo Xizr a.s. ga ilmi ladunni nasib qildi va hayvon suyi iborat ondin*»³ kabi diniy tafsilotlarga urg`u berilgan.

Bu keltirganlarimiz bilan ummonga shung`igan g`avvosning u yerdan nishona sifatida ko`targani uch, to`rt marvarid holatida qolmoqdamiz. Xulosa o`rnida bizga ma`lum bo`ladiki, Alisher Navoiyning ijodiy ummonidagi birgina mursaliy Xizr obrazining behisob diniy, falsafiy,majoziy,ba`zan tarixiy ma`no-mazmundagi qo`llanishlar har birida o`ziga xosdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to`plami. Uchinchi tom. G`aroyib us-sig`ar. - Toshkent: Fan, 1987. - 16-bet(414 bet)
2. Alisher Navoiy. Tarixi anbiyo va hukamo»«16-bet.
3. Abdulhamid Qurbonov. Ikki maqola:Zulf-sufiyona istilohda olam ramzi»kh-davron.uz.2018.
4. Fozilov E. I. tahriri ostida Navoiy asarlari tilining izohli lug`ati, O`zbekiston SSR Fan nashriyoti 2- va 3-jild.
5. Latipova Mamlakat, Rahmonov Erkin, Rahmonov Vahob. Mumtoz asarlar lug`ati. - Toshkent: Akademnashr, 2019.- 542 b.

² U.Qobilov. Alisher Navoiy she`riyatida Xizr obrazi badiiy talqiniga doir. (Maqolasi). № 2023. № 15 b.

³ Alisher Navoiy. Tarixi anbiyo va hukamo.16-bet.

6. Qobilov Usmon. Alisher Navoiy she`riyatida Xizr obrazi badiiy talqiniga doir. (Maqolasi). - 2023. - 15 b.
7. Qur`oni karim. 204-205-betlar
8. Qissasi Rabg`uziy. II kitob. 68-bet.
9. Miroti ushshoq(“Oshiqlar ko`zgusi”) - sufiyona ishtilohlarning izohli lug`ati.
10. Tilakova Nafosat. Folklor va mumtoz asarlarda Xizr obrazining talqini(maqola). – Qarshi: Scientific Journal Impact Faktor, 2021. – 912-918-betlar.
11. Shokirova Hilola. Bir g`azal sharhi. - Toshkent: conferencepublication.com. 2020. - 302-304- betlar.